ISNN 3030-3907

2025/4
VOLUME 6

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 6

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MILLIY MATO UYG‘UNLASHTIRILGAN BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHI QIZLARI FORMASINI ISHLAB CHIQARISHDAGI UNUMDORLIK HISOBLARI TAHLILI

Xojiyev Abduraxim Abduraxmonovich,
Namangan davlat texnika universiteti, Yengil sanoat muhandisligi kafedrasi professori,
E-mail: abduraximxojiyev@gmail.com
Babayeva Shoxista Hamidxon qizi,
Namangan davlat texnika universiteti, 3-bosqich tayanch doktoranti
E-mail: shoxistababayeva135@gmail.com
Tel:+998500075902

Annotatsiya. maqolada boshlang‘ich sinf qiz bolalar maktab formasining yangi dizayndagi modelini ishlab chiqarish unumdorligi hisobi bayon qilingan. Oqimda maktab formasini tikish jarayonida koftani tikish uchun 720 sekund, yubkani tikishga 600 sekund sarflangan. Ya’ni yubkani tikib ishlab chiqarish unumdorligi koftaga nisbatan 17 % ga yuqori ekanligi aniqlandi. Tikuvchilik korxonasida uzliksiz ish rejimini ta’minlash maqsadida dastavval ishchilar kofta tikib oladilar. Shundan so‘ng, kofta soniga muvofiq tarzda yubka ishlab chiqariladi.

Kalit so‘zlar: iqtisodiy samaradorlik, choklash usuli, milliy matolar, qizlar koftasi, qizlar yubkasi, ishlab chiqarish unumdorligi, elektr energiya sarfi, qiyosiy tahlil.

Аннотация. В статье описан расчет производительности производства новой модели школьной формы для девочек начальных классов. В процессе пошива школьной формы на пошив блузки тратилось 720 секунд, а на пошив юбки — 600 секунд. То есть было установлено, что производительность пошива юбки на 17% выше, чем блузки. Для обеспечения бесперебойной работы на швейном предприятии работницы сначала шьют блузки. После этого юбки производятся в соответствии с количеством блузок.

Ключевые слова: экономическая эффективность, метод пошива, отечественные ткани, блузки для девочек, юбки для девочек, производительность производства, потребление электроэнергии, сравнительный анализ.

Abstract. The article describes the calculation of the productivity of the production of a new design model of a school uniform for primary school girls. In the process of sewing a school uniform, 720 seconds were spent on sewing a blouse, and 600 seconds on sewing a skirt. That is, it was found that the productivity of sewing a skirt is 17% higher than that of a blouse. In order to ensure uninterrupted work at a sewing enterprise, workers first sew blouses. After that, skirts are produced in accordance with the number of blouses.

ISSN 3030-3907

Keywords: economic efficiency, sewing method, national fabrics, girls' blouses, girls' skirts, production productivity, electricity consumption, comparative analysis.

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15 avgust 2018 yildagi 666-sonli “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini zamonaviy yagona maktab formasi bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, amaliyotga joriy etilgan bo‘lsa-da, qarorda ko‘rsatilgan forma namunalarida milliylik aks etmagan [1].

Respublikamizda tikuv va tikuv-trikotaj sanoatini modernizatsiyalash, keng turdagi to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarilishini tashkil etish, uni mahalliylashtirishni chuqurlashtirish, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan bir qator hukumat qarorlari, ya’ni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risisda”gi Farmoni bilan milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantiorish va yuqori o‘sish sur’stlarini ta’minlash bo‘yicha belgilangan vazifalar doirasida:

a) 2022 yilda yillik inflyatsiya darajasini 9 foizgacha va 2023 yilda 5 foiz hamda fiksal taqchillikni 3 foizgacha pasaytirish choralari ko‘rilib, keyinchalik inflyatsiya va Davlat taqchilligi ushbu ko‘rsatkichdan oshmasligi ta’minlab borilsin;

b) 2023 yildan QQS stavkasi 12 foizgacha hamda 2025 yildan bank, moliya, telekommunikatsiya kabi tadbirkorlik yo‘nalishlarida foyda solig‘i stavkasi 15 foizgacha tushirilsin [2].

Yuqoridagilarni inobatda olgan holda, tadqiqot ishi doirasida bajarilayotgan amaliy ishlarni, ya’ni milliy elementlarga ega bo‘lgan maktab formasi to‘plamini ishlab chiqarishda optimal elektr energiyasi sarflovchi tikuv mashinalaridan foydalanish ko‘zda turilgan.

Iqtisodiy faoliyat samaradorligining zamonaviy tashkil etish shakllaridan biri elektr energiyasi iste’molini tejash muammosini hal etishda yangi texnika-texnologiyalardan unumli foydalanishdir. Yangi texnika-texnologiyalar hamda ilm-fan yutuqlari asosida xomashyo sifatida trikotaj hamda boshqa turdagi mahsulotlarga turli xususiyatli milliy matolarni birlashtirish imkonini beradigan tikuv va choklash usulini yaratish eng muhim jarayonlardan biridir [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Milliy mato uyg‘unlashtirilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchi qizlari maktab formasini ishlab chiqarishdagi unumdorlik hisobini aniqlashda dastavval qizlar yubkasi ishlab chiqarishdagi unumdorlik hisobini ko‘rib chiqildi. Bunda tikuv mashinasi bosh valining aylanishlar soni, bitta yubka tayyor bo‘lishi uchun sarflanadigan vaqt va elektr

ISSN 3030-3907

energiyasi hamda uning harajat summasi hisob-kitob qilindi. Hisoblar natijalari quyidagi 1-jadvalda ifodalangan.

1-jadval

Milliy mato uyg‘unlashtirilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchi qizlari yubkasi ishlab chiqarishdagi unumdorlik hisobi

№	Tikuv mashinasi bosh valining aylanishlar soni, ayl/min	Bitta yubkani tayyor bo‘lish vaqti (sekund)	Sarflangan elektr energiyasi	Sarflangan elektr energiyasi xarajati (summa)
		yubka	KW	so‘m
1	3000	655	2,432593	4865,186
2	4000	600	2,278935	4557,87
3	5000	530	2,116157	4232,314

Yuqoridagi 1-jadvalda milliy mato uyg‘unlashtirilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchi qizlari yubkasi ishlab chiqarishdagi unumdorlik hisobini aniqlashda tanlangan tikuv mashinasi bosh valining aylanishlar soni turlicha bo‘lganda bitta yubka tikish uchun sarflanadigan vaqt, elektr energiyasi va unga ketadigan mablag‘ sarf-xarajati hisoblab yozilgan bo‘lib, tikuv mashinasi bosh valining aylanishlar soni ortib borishi bilan bitta yubka tikish uchun sarflanadigan vaqt ham elektr energiyasi sarfi ham kamayib borishiga erishish mumkinligi aks etgan [4].

Shundan so‘ng, boshlang‘ich sinf o‘quvchi qizlari koftasi ishlab chiqarishdagi unumdorlik hisobini ham xuddi yubka kabi aniqlandi. Hisob natijalari 2-jadvalda ko‘rsatilgan.

2-jadval

Milliy mato uyg‘unlashtirilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchi qizlari koftasi ishlab chiqarishdagi unumdorlik hisobi

№	Tikuv mashinasi bosh valining aylanishlar soni, ayl/min	Bitta koftani tayyor bo‘lish vaqti (sekund)	Sarflangan elektr energiyasi	Sarflangan elektr energiyasi xarajati (summa)
		yubka	KW	so‘m
1	3000	850	2,304398	4608,796296
2	4000	720	2,253472	4506,944444
3	5000	690	1,820602	3641,203704

ISSN 3030-3907

Yuqoridagi 2-jadvalda esa milliy mato uyg‘unlashtirilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchi qizlari koftasi ishlab chiqarishdagi unumdorlik hisobini aniqlashda tanlangan tikuv mashinasi bosh valining aylanishlar soni turlicha bo‘lganda bitta kofta tikish uchun sarflanadigan vaqt, elektr energiyasi va unga ketadigan mablag‘ sarf-xarajati hisoblab yozilgan bo‘lib, tikuv mashinasi bosh valining aylanishlar soni ortib borishi bilan bitta kofta tikish uchun sarflanadigan vaqt ham elektr energiyasi sarfi ham kamayib borishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Umumiy hisobda milliy matolardan tayyorlangan qizlar uchun kofta ishlab chiqarishga nisbatan, yubka tikib ishlab chiqarish unumdorligi 17 % ga yuqori ekanligi aniqlandi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Jack F-4 tikuv mashinasida choklangan milliy liboslarni ishlab chiqarishga sarflangan elektr energiyasini hisobi. Jack F-4 tikuv mashinasini harakatga keltiruvchi elektrodvigatel mavjud bo‘lib, dvigatel 550 kv/soat, elektr energiyasi istemol qiladi. Shuningdek tikuv mashinasida kofta va yubkalar ishlab chiqarish uchun ham xuddi manashu elektrodvigatel tikuv mashinasini xarakatga keltirish bilan choklash amalga oshiriladi. Quyida Jack F-4 tikuv mashinasini harakatga keltiruvchi dvigatellarning elektr energiyasi iste’moli jadvallari keltirilgan.

3-jadval

Elektr energiyasi iste’molida (8 soat yoki 28800 sekund) tayyorlangan mahsulot unumdorligi

Kofta va yubka tikish uchun umumiy vaqt sarfi	Tayyor mahsulot (dona)		Kofta va yubka tikish uchun o‘rtacha vaqt sarfi
	Kofta uchun	Yubka uchun	
1320 (sek)	1	1	660 (sek)
1 soat	5	6	1 soat
8 soat	40	48	8 soat
Iste’mol, kv/ soat 8 soat	1106,064	1167,644	

4-jadval

Yubka uchun kunlik ish birligida elektr energiyasi iste’moli

Iste’mol, kv/ soat	Yubka uchun kv/ soat	Oylik iste’mol xarajatlari, so‘mda
Bir kunlik	1167,644	2335288

ISSN 3030-3907

Bir oylik	29191,1	58382200
Bir yillik	350293,2	700586400

5-jadval

Bir smenada kofta va yubka ishlab chiqarish uchun bir yillik elektr energiyasi iste'moli hisobi

Iste'mol, kv/ soat	Yubka uchun kv/ soat	Oylik iste'mol xarajatlari, so'mda
Bir kunlik	36,870368	73740,74074
Bir oylik	112,6736	225347,2222
Bir yillik	1092,3612	218472222,2

Jumladan, dam olish kunlarini hisobga olinmasa, bir yil davomida o'rtacha 300 kun 8 soat ish bir smena birligida hisoblanadi. Agar tavsiya etilayotgan Jack F4 tikuv mashinasida choklashdagi elektr-energiya iste'mollarini taqqoslasak ishlab chiqarishda kam elektr energiyasi sarflanishi aniqlandi. Bu esa milliy mato uyg'unlashtirilgan boshlang'ich sinf o'quvchi qizlari kofta yubkasi ishlab chiqarishda mavjud ishlab chiqarilayotgan kofta-yubkaga nisbatan yiliga 6 % elektr energiyasini tejab qolish imkoniyatini beradi [5].

Ya'ni, bir smena ish vaqtida sarflangan elektr energiyasi iste'moli orasidagi farqi 700586400-218472222,2 = 482114177.8 so'mni tashkil etadi. Bu esa 241057.1 kilovatt elektr energiyasini tejab qolinganligini bildiradi.

Albatta, tikuv buyumlari ishlab chiqarish sanoatida kam xarajatli yuqori sifatli mahsulotlarga bo'lgan talab va ehtiyojni hisobga olgan holda ushbu tavsiya qilingan Jack F4 tikuv mashinasida foydalanib, kofta-yubka maktab formasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

6-jadval

Mavjud maktab formasi bilan loyihalanayotgan maktab formasining afzalliklari bo'yicha qiyosiy tahlil jadvali

Mavjud maktab formasi sarf xarajatlari (1dona kofta va yubka uchun)	**Loyihalanayotgan maktab formasi sarf xarajatlari (1dona kofta va yubka uchun)**	**O'rtadagi tafovut**
Material xarajatlari 80 000	**Material xarajatlari 70 000**	10 000 so'm
Boshqa xarajatlar 18 000 so'm	Boshqa xarajatlar 16 500 so'm	1 500 so'm
1 dona qiz bolalar maktab formasini umumiy xarajati 98 000 so'm	1 dona qiz bolalar maktab formasini umumiy xarajati 86 500 so'm	11 500 so'm

ISSN 3030-3907

Bozorda sotish narxi 113 000	Bozorda sotish narxi 100 000	13 000
Sotishdan foyda 15 000	Sotishdan foyda 13 500	1 500

Qiyosiy tahlil jadvalidan ko‘rinib turibdiki, hozirgi kunda ishlab chiqarilayotgan mavjud maktab formasi material, boshqa xarajatlari hamda bozorda sotish narxi loyihalanayotgan milliy mato uyg‘unlashtirilgan maktab formasiga nisbatan tannarxi va sotilish barxi qimmatligi, uni tikishda tanlangan tikuv mashinasi turiga ko‘ra, elektr energiyasi xarajati yuqori chiqadi [6].

Shu boisdan taklif etilayotgan yangi modeldagi milliy elementlarga ega bo‘lgan maktab formasini ishlab chiqarishga tavsiya etilishi bilan iqtisodiy samaradorlikka erishiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Maktab o‘quvchilari uchun kofta va yubka kiyim mahsulotlarini ishlab chiqarishda turli xususiyatga ega milliy matolardan foydalanish, Jack F-4 tikuv mashinasida turli choklash usullarni qo‘llash orqali yaxshi samaraga erishiladi [7].

Masalan, turli xususiyatli milliy matolardan tayyorlangan maktab o‘quvchi qizlar uchun tayyorlangan kofta yubkalarni maьlum bir nisbatda to‘g‘ri sifatli choklash orqali, erishish mumkin. Bu yerda milliy matolarni choklarining kerakli xususiyatlari ya’ni chokni pishiqligi, tashqi ko‘rinishidagi bir tekis chiroyli, libos matolarining xavo o‘tkazuvchanligi, va boshqalarni ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 15 avgust 2018 yildagi 666-sonli “Davlat umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilarini zamonaviy yagona maktab formasi bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Бабаджанов С.Г., Доможиров Ю.А. Экономика предприятий швейной промышленности.-М.;Издательский центр «Академия», 2003г.- 261
4. Pardaev Q., Abdukarimov I. Iqtisodiy tahlil. – T.: “Mehnat”,2004.
5. Maxmudov E. “Korxona iqtisodiyoti“ (o‘quv qo‘llanma) –T.: TDIU. 2004.
6. https://hozir.org/iqtisodiy-samaradorlikning-mohiyati-va-mezoni.html
7. H. Aybeshov, A Ergashev, A Ismoilov “Marketing asoslari”. O‘quv qo‘llanma Toshkent-“ILM-ZIYO”- 2

ISSN 3030-3907